

GLOBAL BANK XIZMATLARI BOZORIDA O'ZBEKISTON BANKLARINING
RAQOBATBARDOSHЛИGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI

Izatova N.N.

1-kurs magistiranti

Jumayeva Z.Q.

Ilmiy rahbar: dots. Osiyo Xalqaro Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512310>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston banklarining global bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash strategiyalari tahlil qilindi. Raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalar, inson kapitali rivoji va xalqaro integratsiya kabi asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston bank sektorining mavjud holati, ijobjiy o'zgarishlari va tizimli muammolari yoritilib, global moliya bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar. O'zbekiston banklari, global bank xizmatlari bozori, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalar, inson kapitali, xalqaro integratsiya, bank strategiyalari, moliyaviy barqarorlik.

So'nggi yillarda dunyo bank-moliya tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi, mijoz ehtiyojlarining murakkablashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari banklar oldiga yangi talablar qo'yemoqda. Ushbu sharoitda O'zbekiston bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, global moliya bozorida o'z o'rnini mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon moliya tizimining jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi sharoitida bank sektorining samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Global bank xizmatlari bozori raqobatga asoslangan bo'lib, bunda texnologik innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik, xizmatlar sifati va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston bank tizimi ham so'nggi yillarda jadal islohotlar bosqichiga kirib keldi.

Xususan, 2020–2030 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida kapitalni oshirish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish kabi yo'nalishlar belgilandi. Ammo global miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun banklar yanada chuqr strategik yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur.

Hozirda O'zbekiston bank sektorida 30 dan ortiq tijorat banklari faoliyat olib bormoqda.

Ularning ko‘pchiligi davlat ulushiga ega bo‘lib, qisman xususiylashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda:

- ✓ Raqamli xizmatlar joriy etilmoqda (mobil banking, onlayn kreditlash, QR to‘lovlar);
- ✓ Banklarning moliyaviy salohiyati oshmoqda;
- ✓ Xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalar kuchaymoqda;
- ✓ Yangi, innovatsion xizmatlar bozorda paydo bo‘lmoqda.

Shunga qaramay, bir qator tizimli muammolar mavjud:

- Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar hali yetarli emas;
- Kadrlar malakasi global bank amaliyotlariga to‘liq mos emas;
- Bank xizmatlarining sifati, tezligi va mijozlarga yondashuv darajasi past;
- Raqobatga bardosh beruvchi texnologik infratuzilma sust rivojlangan.

Xalqaro bank xizmatlari bozori quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga asoslangan:

1. Texnologik innovatsiyalar – raqamli bank, blokcheyn, sun’iy intellekt asosida xizmatlar ko‘rsatish.
2. Mijozga yo‘naltirilgan xizmatlar – personalizatsiyalangan xizmatlar, tezkor muomala, ommabop interfeyslar.
3. Moliyaviy barqarorlik – xalqaro reytinglar, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish.
4. Integratsiyalashgan xizmatlar – moliyaviy ekotizimlar, fintech kompaniyalar bilan hamkorlik.

O‘zbekiston banklari uchun bu omillarni hisobga olgan holda quyidagi strategiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Raqamli transformatsiyani kuchaytirish

- Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatishni kengaytirish;
- Big data, sun’iy intellekt asosida kredit risklarini baholash tizimlarini joriy qilish;
- Kiberxavfsizlikni ta’minlovchi zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish.

2. Inson kapitalini rivojlantirish.

- Xalqaro tajribaga ega bank xodimlarini tayyorlash;
- Ustoz-shogird tizimi orqali yosh kadrlarga tajriba o‘rgatish;
- Banklar akademiyalari va trening markazlari faoliyatini kuchaytirish.

3. Xalqaro integratsiya va moliyaviy ochiqlik.

- Xalqaro reyting agentliklarida baholanish va ishonchni oshirish;
- Chetdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun islohotlar;

- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va bank nazorati (Basel III) talablariga muvofiqlik.

4. Mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar
 - Aholining ijtimoiy guruhlariga mos maxsus bank mahsulotlarini ishlab chiqish;
 - Kichik biznes va startaplar uchun qulay kreditlash tizimlarini yaratish;
 - Onlayn maslahat xizmatlari va sun'iy intellektga asoslangan “virtual menejerlar”ni joriy etish.

O‘zbekiston banklari global moliya bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bank boshqaruvi, xizmat sifati, inson kapitali va innovatsion fikrlash muhim omillar sifatida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim. Shunga asosan quyidagilarni tavsiya etamiz:

- Banklar har yili raqobatbardoshlik indeksini baholab, strategik reja ishlab chiqishi kerak;
- Raqamli texnologiyalarni tatbiq etishda xalqaro fintech kompaniyalari bilan hamkorlik kengaytirilsin;
- Oliy ta’lim muassasalari va banklar o‘rtasida ustoz-shogird tizimi asosida kadrlar tayyorlash dasturlari yaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-martdagi PF-5992-son Farmoni.
2. Jahon banki “Global Financial Development Report”, 2023-yil.
3. IMF va EBRD moliyaviy barqarorlik tahlillari, 2024-yil.
4. Джумаева, З. (2025). ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ, ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ЕЕ АКТУАЛЬНОСТЬ. *Международный журнал искусственного интеллекта*, 1 (3), 262-266.
5. Жумаева, З. К. (2019). АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. *ББК 65.0501 A 43*, 190.
6. Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK PARKLARNING MINTAQASI INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 170-178.
7. Sodiqova, N. (2025). IQTISODIYOT FANLARINI O'QITISHDA TALABALAR TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA

- TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ"
международный научно-методический журнал, 2(19).
8. Bahodirovich, K. B. (2025, April). STRUCTURE OF THE CASH FLOWS STATEMENT. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 1, pp. 325-330).
 9. Алимова, Ш. А. (2025). УСТОЙЧИВЫЕ ЦЕПОЧКИ ПОСТАВОК: ОТ ТРЕНДА К НЕОБХОДИМОСТИ РАСПРОСТРАНЕННАЯ ВЕРСИЯ. *Modern Science and Research*, 4(5), 76-81.
 10. Toshov, M. H. (2025). SANOAT KORXONALARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH TIZIMINI BOSHQARISH. *Modern Science and Research*, 4(4).
 11. Azimov, B. (2025). METHODS AND MODELS FOR ASSESSING THE SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY OF REGIONAL INNOVATION INFRASTRUCTURE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 685-691.
 12. Ikromov, E. I., & Safarova, J. (2025). O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI HUDUDLARDA RIVOJLANIRISHI ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(4), 421-428.
 13. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.
 14. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.
 15. Naimova, N. (2025). THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON MODERN ECONOMIC PROFESSIONS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 153-155.
 16. Bazarova, M. (2025). FEATURES OF ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INNOVATION RISK MANAGEMENT OF AN EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF ACTIVITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 161-164.
 17. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF MICROECONOMIC ANALYSIS IN ENHANCING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH MARKET EQUILIBRIUM ANALYSIS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 634-637.
 18. Bobojonova, M. (2025). GREEN ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN AND ITS OPPORTUNITIES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 592-595.

19. Jumayeva, Z. (2025). THE FORMATION OF THE GREEN ECONOMY CONCEPT, STAGES OF DEVELOPMENT AND ITS RELEVANCE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 262-266.
20. Ibragimov, A. (2025). TAX POLICY AND IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 259-261.
21. Djurayeva, M. (2025). ISSUES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 596-598.
22. Umarova, H. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KORXONA RISKLARINI BOSHQARISH VA BAHOLASH AMALIYOTI T AHLILI. *Modern Science and Research*, 4(5), 158-161.
23. Aslanova, D. (2025). CHALLENGES OF IMPLEMENTING MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES IN THE TOURISM INDUSTRY. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 119-121.
24. Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(2), 474-479.
25. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 335-340.
26. Akramova, O. (2025). FOREIGN COUNTRIES IN EXPERIENCE INVESTMENT ATTRACTIVENESS INCREASE MECHANISMS AND UZBEKISTAN IN PRACTICE USE OPPORTUNITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(1), 395-398.
27. Jumayev, B. (2025). BIG DATA: CUSTOMER CREDIT ANALYSIS USING DIGITAL BANKING DATABASE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1056-1059.
28. Gafarova, D. (2025). INNOVATION POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND PROSPECTS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 165-167.
29. Raximova, L. (2025). DIRECTIONS AND PRIORITY FEATURES OF THE TRANSITION TO THE "GREEN ECONOMY". *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 156-160.